



Тадқиқот **uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Хукуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 15-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
15-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН  
КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN 15-MULTIDISCIPLINARY  
ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND  
PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2020**

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

---

<b>71. Мардонова Лобар Умаралиевна,</b> АМИР ТЕМУР ОБРАЗИ ВА БАДИЙЛИК МЕЗОНЛАРИ.....	160
<b>72. Шоира Нематовна Ахмедова</b> ЁЗУВЧИ МАКТУБЛАРИ.....	165
<b>73. Худойкулова Марҳабо Аҳадовна</b> ТАДҚИҚОТ ВА БАҲС-МАҚОЛА ХУСУСИДА.....	168
<b>74. Улиқова Мавлуда Сотвоздиевна</b> ТИЛШУНОСЛИК ФАНИ ТИЗИМИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯНИНГ ТУТГАН ЎРНИ..	170
<b>75. Ernazarova M.S.</b> ONA TILI DARSLARIDA O'QITUVCHIDAN TALAB QILINADIGAN PEDAGOGIK MAHORAT..	172
<b>76. Hakimova Aziza Xaydaraliyevna, Umaraliyev Jaloliddin</b> ADABIYOT - INSON QALBIGA YO'L.....	173
<b>77. Jo'rayeva Elnora Erkinovna, Mirzaxmedova Hulkar</b> FORS TILIDA PSIXOLOGIYAGA OID BIRIKMA TERMINLAR.....	175
<b>78. Mahmudova Fotima No'monjon qizi</b> TILNING IJTIMOIY TABIATI.....	178
<b>79. Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi, Salohiddinova Gulandon Murodjon qizi</b> THE METHOD OF TEACHING GRAMMAR.....	179
<b>80. Ruzmetova Nargiza Anvarovna</b> INGLIZ TILI OLMOSSHURNING UMUMIY KLASIFIKATSİYASI.....	181
<b>81. G'ayratova Zahroxon Davronxo'ja qizi</b> YAPON VA XITOY TILLARIDA KECHIRIM SO'RASH.....	183
<b>82. Ю.Усмонова, Ҳ. Алматова</b> ҚАЛАМ ВА ҚИЛИЧ СОҲИБИ.....	187
<b>83. Айнурда ЖИЕНБАЕВА</b> ТОЛЕПБЕРГЕН ҚАЙЫПБЕРГЕНОВТЫН "СУЎҚ ТАМШЫ" ПОВЕСТИНДЕ ГОНЕРГЕН СОЗЛЕРДИН ҚОЛЛАНЫЛЫЎЫ.....	189
<b>84.Kukanova Namunaxon Imomaliyevna,</b> THE PECULIARITIES OF LEARNING BRITISH AND AMERICAN ENGLISH VOCABULARIES..	192
<b>85. Qodirova Fotima Xamidjonovna,</b> THE ROLE OF ASSESSMENT METHOD IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGE.....	193
<b>86.Sultanova Nasiba Muxamadjanovna</b> KULOLCHILIK BUYUMLARINI IFODALOVCHI SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	194
<b>87.Abdiyeva Muhayyo Akramaliyevna,</b> LEXICAL GAMES AT THE ENGLISH LESSONS.....	195
<b>88.Abdullayeva Anora Qahramonovna,</b> ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITUVCHISI NUTQIDA SO'ZNING QO'LLANILISHI.....	197
<b>89. Adilova Fanuza Shodiyor qizi</b> KOMIL XORAZMIY G'AZALLARIDA IJODIY AN'ANA VA POETIK YANGILANISH.....	199
<b>90.Akhmedova Aziza</b> INNOVATIVE EDUCATION.....	202
<b>91. Alimardanov Elyor Ixom o'g'li</b> O'ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA UNLILAR QIYOSI.....	204
<b>92. Anvarjonova Gulsanamoy Mash'albek qizi, Mambetova Mavluda Axmadjanovna</b> FEATURES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING FOR PUPILS WITH EMPTY LEARNING....	208
<b>93. Lobar Aralova Akbar qizi</b> RUS TILIGA O'ZLASHGAN TURKIY SO'ZLAR.....	210
<b>94. Аслонова Камола,</b> ЧЕТ ТИЛИ ДАРСЛАРИНИНГ ЎҚИТИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МУЛЬТИМЕДИА ТАҚДИМОТИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ.....	212
<b>95. Asrorov Igor Fayzi o'g'li</b> MATERIALS AND CONDITIONS DEPICTING OPPORTUNITIES FOR LPP PROPOSAL TO MICRO LEVEL EDUCATIONAL SETTINGS.....	214
<b>96. Ataxanova Oydina Abdulloh qizi,</b> INNOVATIONS PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TA'LIM MAZMUNINING ASOSI.....	216

## O'ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA UNLILAR QIYOSI

Alimardanov Elyor Ilxom o'g'li  
ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik (turkologiya)  
mutaxassisligi II kurs magistranti  
Telefon: +998 (97) 404 91 95  
alifiroqiy.95@gmail.com

*Annotatsiya. O'zbek va turkman tillarining qiyosiy o'r ganilishi ko'p jihatdan ularning fonetikasiga bog'liq bo'lib, tovushlar, unli va undosh fonemalar ushbu tillarning o'z xususiyatlarini aks ettiradi. Shu tufayli qarindosh tillarning qiyosiy o'r ganilishida unli va undosh fonemalarning ahamiyati muhimdir. Ushbu maqolada o'zbek va turkman tillari, shuningdek, o'zbek tilining xorazm shevasidagi unlilar tizimi qiyosi berilgan.*

*Kalit so'zlar: o'zbek tili, turkman tili, xorazm shevasi, fonetika, fonema, unli va undosh tovushlar.*

Turkiy tillar tarkibiga kiruvchi o'zbek va turkman tillari oilaning qarluq va o'g'uz guruhlariga mansub bo'lib, ushbu tillarda farqli jihatlar bilan birligida geografik yaqin hududda joylashganliklari, shuningdek, chig'atoy adabiy tilining Turkiston hududidagi tillarga birdek ta'sir etganligi sababli yaxshigina o'xhash jihatlar shakllangan. Aytish joizki, turkman tili o'g'uz guruhiga kiruvchi boshqa tillardan farqli ravishda qipchoq, shu bilan birligida, fors tili elementlarining ta'siri natijasida rivojlangan.<sup>1</sup> Shunga ko'ra, guruhdosh tillardan fonetik, leksik va grammatik jihatlardan farqlar yuzaga kelgan.

O'zbek tilining shakllanishida esa uch asosiy lahjaning biri o'g'uz lahjasini bo'lib, lahja hozirgi o'zbek tilining taraqqiyotida muhim o'r in tutadi. Fonetik jihatdan o'zbek va turkman tillarining mavjud o'xhashliklari, turli tafavutlari, noo'xhash holatlari umumturkologik planda qisman o'r ganilgan. Xususan, B.A.Serebrinnikov va N.Z.Gadjiyevalarning "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi"<sup>2</sup>, N.A.Baskakovning "Turkiy tillarning tarixiy-tipologik fonologiyasi"<sup>3</sup>, A.M.Sherbakning "Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi"<sup>4</sup> kabi tadqiqotlarida umumiylar tarzda ma'lumotlar berilgan. O'zbek va turkman tillarining fonetik xususiyatlari, tovushlar tizimi asosiy obyekt sifatida keng darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, o'zbek va turkman tillarining qiyosiy o'r ganilishi hali javobini topmagan, munozarali bo'lib turgan jihatlarga tilning asl va o'z mohiyatini ilmiy jihatdan ochish orqali aniq va konkret yechim topishi, shu bilan birligida, turkologiya fani uchun muhim va zarur manba vazifasini o'taydi. Shunday ekan, quyida tilshunoslikning boshlang'ich bo'limi hisoblangan fonetika jihatidan o'zbek va turkman tillarining unlilar tizimi yuzasidan kuzatishlarimizni keltiramiz. Aytish kerakki, o'zbek va turkman tillarini qiyoslashda o'zbek adabiy tili bilan birligida o'g'uz guruhi tillari xususiyatlari mavjud bo'lgan xorazm shevasi ham asosiy obyekt sifatida keltiriladi.

Ma'lumki, fonetika nutq tovushlarini o'r ganuvchi tilshunoslik bo'limi. Nutq tovushlari esa o'z o'rnida unli va undosh tovushlarga bo'linadi. Unli tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramasdan hosil bo'ladigan hamda sof ovozdan iborat tovushlardir. Turkiy tillarda unli tovushlarning soni bir xil emas. Ba'zi turkiy tillarda unlilar variantlari bilan hisoblaganda, 20 tadan oshadi (tuva, gagauz, chulim, tatar)<sup>5</sup>. Qozoq va qoraqalpoq tillarida 9 ta<sup>6</sup> va aksariyat turkiy tillarda esa 8 tani tashkil etadi.

Unli tovushlarning miqdori o'zbek va turkman tillarida yuqorida aytiganidek, bir xil emas. O'zbek adabiy tilida 6 ta bo'lsa, turkman adabiy tilida esa 9 ta unli tovush mavjud<sup>7</sup>:

O'zbek tilida: a, e, i, o, o', u;

Turkman tilida: a, ä, e, i, o, ö, u, ü, y[i].



Xorazm shevasi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan dialektolog olim F.Abdullayev ushbu shevada unli tovushlarning miqdorini 10 ta hisoblab,<sup>1</sup> ularni quyidagicha ifodalaydi: и/ъ - і, ъ - ı, ы - й, у - ү, ө - ő, о - օ, е - ے, ә - ڦ, а - а.\*

Umuman olganda, turkiy tillardagi unli fonemalar dastlab miqdor belgilari va sifat belgililariga ko'ra tasnif qilinadi va qiyoslanadi.<sup>2</sup>

Miqdor belgililariga ko'ra, unlilar cho'ziq-qisqalik jihatidan farqlanadi. Unlilarning cho'ziq-qisqaligiga ko'ra farqlanishi nisbiy bo'lib, unlilarning cho'ziqligi hozirgi turkiy tillar uchun umumiy xususiyat hisoblanmaydi. Ba'zi tillarda (asosan, o'g'uz guruh tillarida) mavjud bo'lsa, ba'zilarida esa yo'q. O'zbek adabiy tilida unlilar cho'ziq-qisqalik jihatidan farq etilmaydi va ular qisqa talaffuz qilinadi. Lekin turkman tilida esa aksincha unlilarning cho'ziq va qisqa talaffuzlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati ma'no farqlashga xizmat qiladi:

at (otmoq)	a:t (ism )
ot (maysa)	o:t (olov)
it (kuchuk)	i:t (itarmoq)
gyz (qizimoq)	gy:z, (qiz)
gurt (qurt)	gu:rt (qurut),
süri (surov, to'p)	sü:ri (cho'ziq)

Aytiganidek, hozirgi o'zbek adabiy tilida unlilar cho'ziq-qisqalik jihatidan farqlanmasa-da, ammo bu holat qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida (chig'atoy adabiy tilida) mavjud bo'lgan va tadrijiy taraqqiyot natijasida hozirgi o'zbek tilining lahja-shevalarda saqlangan. Xususan, o'g'uz, qisman qipchoq lahjalarida mavjud.<sup>3</sup>

Miqdor jihatdan o'zbek xorazm shevalari turkman tilidagi kabi cho'ziq-qisqa unlilarga bo'linadi: а - а:, ә - ә:, у - у:, о - о:, ө - ө:, ү - ү:, ى - ى:.

ara (qidirmoq)	a:ra (orasida)
buz (buzmoq)	bu:z (muz)
muš (musht)	mu:š (burchak)
tut (tutmoq)	tu:t (tut mevasi)
sap (sotmoq)	sa:p (sop, dasta)

Sifat belgililariga ko'ra turkiy tillarda unli fonemalarning eng muhim farqlantiruvchi belgilari tovush hosil qilishda og'izning ochilish darajasi, tilning holatiga ko'ra paydo bo'lish o'rni va lablarning ishtiropi asosga olinadi.<sup>4</sup> Sifat belgililariga ko'ra unli fonemalarning guruhlarga bo'linishi o'z ichida yana bo'linishlarni yuzaga chiqaradi.

Og'izning ochilish darajasi yoki tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unli fonemalar quyidagicha bo'linishni hosil etadi:

Tilning vertikal holati	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Yuqori ko'tarilish, tor unlilar	i, u	i, i; u, u:, ү, ү:, ى, ى:	i, i; u, u:, ү, ү:, y, y:
O'rta (ko'tarilish) keng unlilar	e, o'	o, o:, ө, ө:, e, i,	o, o:, ө, ө:, e
Quyi ko'tarilish, keng unlilar	a, o	a, a:, (ə) ä:	a, a:, ä:

Tilning vertikal harakatiga ko'ra unlilar tor unlilar yuqori tor va yuqori ko'tarilish unlilari deb ham nomlanadi. Bu unlilarning talaffuzida og'iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo'ladi.

O'rta keng unlilar, o'rta ko'tarilish deb ham nomlanib, bu unlilar talaffuzida og'iz o'rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi o'rtacha kenglikda (yuqori ko'tarilish bilan quyi ko'tarilish orasida) bo'ladi.

Quyi keng unlilar, quyi ko'tarilish, keng unlilar deb nomlanib, talaffuzda og'iz yuqoridagi har ikki holatdan kengroq ochiladi.<sup>1</sup>



Aytish kerakki, olim F. Abdullayev xorazm shevasi unlilarini tilning vertikal harakatiga ko‘ra, 3 ga emas, balki 4 ga bo‘ladi:

Yuqori ko‘tarilish : i, ī; u, ū, ū; ī, ī;

Yuqori –o‘rta ko‘tarilish: e, ö, ı

Quyi-o‘rta ko‘tarilish e, ö, o

Quyi ko‘tarilish a, a:, (ə) ä:

Talaffuz jarayonida lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilar lablangan va lablanmagan unlilarga bo‘linadi.

Lablanish holati	O‘zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Lablangan	u, o <sup>č</sup> , o	u, ū, ö, o, (ə)	u, ū, ö, o
Lablanmagan	i, ī, a	i, ī, ī, e, ä, a	i, y, e, ä, a

Lablangan unlilar talaffuzda lablar cho‘chchayib, oldinga tomon harakati natijasida hosil bo‘ladi. Lablanmagan unlilarda lablarning harakati deyarli sezilmaydi. Turkiy tillarda lablangan unlilar xarakterli bo‘lib, labial singarmonizmni yuzaga chiqarishi bilan amaliy ahamiyatga egadir. Turkman tili, o‘zbek tilining xorazm shevalarida fonetik jihatdan singarmonizm qoidalari amal qilinadi. Ammo hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi buzilgan. Lablangan (labial) singarmonizmda birinchi bo‘g‘inda lablangan unli kelsa, keyingi bo‘g‘inlardayam lablangan unli keladi va aksincha, dastlabki bo‘g‘inda lablanmagan unli kelsa keyingilaridayam lablanmagan unli keladi.

Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra, unlilar o‘zbek tilida old va orqa qator unlilarga bo‘linsa, turkman tili va xorazm shevalarida esa, old, o‘rta, orqa qator unlilariga bo‘linadi:

Tilning gorizontal holati	O‘zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Old qator	i, ī, a	ä, i, e, ū, ö	ä, ī, e, ū, ö
O‘rta qator		ı	Y
Orqa qator	u, o <sup>č</sup> , o	ı, u, o, a(ə)	a, o, u

Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra bo‘linishi ko‘pchilik olimlar tomonidan o‘zbek tili unlilari uchun nisbiy ekanligi e’tirof etilgan va asosiy tasnif sifatida keltirilmaydi. Bunda unlilar so‘zda kelish o‘rniga ko‘ra yondosh tovushlar natijasida old qator orqa qatordek yoki orqa qator old qator unli kabi talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, *qaram* va *karam* so‘zlarida a unlisi birinchi so‘zda orqa qator talaffuz qilinsa, ikkinchi so‘zda old qator sifatida talaffuz qilinadi.

Kuzatishlarimizdan xulosa qilsak, o‘zbek va turkman tillari fonetik tizimini qiyoslashda quyidagilar aniq bo‘ladi:

O‘zbek adabiy tilidagi unlilar tilning gorizontal harakatiga ko‘ra, old va orqa qatorlik, shuningdek, singarmonizm uchun muhim bo‘lgan qattiq-yumshoqlik kabi xususiyatlarini yo‘qotib, oralig (indeferrerent)lik xarakteriga ega ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘zbek adabiy tilida unlilarning indefferentlik xususiyati, kontrast juft unlilarning birlashishi natijasida unlilar miqdori son jihatdan turkiy tillar ichida keskin kamayishiga (6 ta) olib kelgan bo‘lib, son va sifat jihatidan katta tafavutga ega bo‘lgan turkman tili bilan qiyoslashda ba’zi noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan quyida turkman, umuman, o‘g‘uz turkum (turk, ozarbayjon, gagauz) tillari bilan qiyoslashda xorazm shevasi bilan tadqiq qilish muhimligi yuzasidan xulosalarimizni keltiramiz:

O‘zbek adabiy tili va turkman tillarida unlilar soni keskin farq qiladi, shu jihatdan o‘zbek tilini turkman tili bilan solishtirishda xorazm shevasi unlilari bilan qiyoslash kerak;

Qadimiy cho‘ziq unlilari bo‘lgan turkman tilini bunday unlilarga ega bo‘lмаган hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslashda munosiblik, tenglik nuqtai nazaridan kelib chiqib, shunday xarakterga ega bo‘lgan o‘zbek tilining xorazm shevasi unlilari bilan o‘rganish maqsadga muvofiqdir;

Turkiy tillar uchun xarakterli bo‘lgan singarmonizm hodisasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida buzilgan bo‘lib, fonetik jihatdan singarmonizm qoidasiga amal qiluvchi turkman tili bilan qiyoslashda singarmonizmga bo‘ysunuvchi o‘zbek tilining xorazm shevasi bilan tadqiq qilinishi lozimdir.



- Foydalanilgan adabiyotlar
- Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. TDPU. Toshkent, 2013.
- Dadaboyev H., Xolmonova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent, 2015.
- Mehmet Kara. Türk lehçeleri grameri. Türkmen türkçesi. Ankara. Akçağ, 2007.
- Weýisow B. Türkmen diliniň taryhy. Aşgabat, 2008.
- Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. ЎзССР ФА. Тошкент 1961.
- Абдурасулов Ѓ. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. "Фан". Тошкент, 2009.
- Багыев Х. Дил билимине гириш. Ашгабат, 1985.
- Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. М. Наука. 1988.
- Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. "Фан". Тошкент, 2009.
- Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М. 1986.
- Тұймебаев Ж., Ескеева М., Абдиназимов Ш. Қазақ және қарақалпақ тілдерінің салыстырмалы грамматикасы. "Мастер ПО". Астана, 2017.
- Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л., 1970.